

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/29.02.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

ACHILOV LUQMON G'AYRATOVICH

**INGICHKA ICHAK MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARINING BOSH
MIYA JAROHATLANISHINING TURLI DAVRLARIDAGI QIYOSIY
TAVSIFI**

14.00.02 – Morfologiya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Achilov Luqmon G'ayratovich

Ingichka ichak morfologik ko'rsatkichlarining bosh miya jarohatlanishining turli davrlaridagi qiyosiy tavsifi..... 3

Ачилов Лукмон Гайратович

Сравнительная характеристика морфологических показателей тонкой кишки в различных сроках после черепно-мозговой травмы..... 21

Achilov Lukmon Gayratovich

Comparative description of the morphological parameters of the small intestine at different periods following traumatic brain injury (abstract)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/29.02.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

ACHILOV LUQMON G'AYRATOVICH

**INGICHKA ICHAK MORFOLOGIK KO'RSATKICHLARINING BOSH
MIYA JAROHATLANISHINING TURLI DAVRLARIDAGI QIYOSIY
TAVSIFI**

14.00.02 – Morfologiya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Tib4004 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bsmi.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshayev Shuxrat Jumayevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Zokirova Nargiza Bahodirovna
tibbiyot fanlari doktori

Qurbonov Said Safarovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 13 oktabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50. e-mail: info@bsmi.uz).

Dissertatsiya bilan Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro‘yxatga olingan), (Manzil: 200126, Buxoro shahri, G‘ijduvon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (+998-95) 911-00-50. e-mail: info@bsmi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 02 oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 02 oktabrdagi 51 raqamli reestr bayonnomasi).

M.R. Mirzoyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o‘rinbosari o‘rinbosari, tibbiyot fanlari
doktori, professor

N.Q. Dustova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

A.R. Obloqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari
doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda bosh miya jarohatlari (BMJ) jamoat salomatligiga xavf solayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Dunyo miqyosida ushbu muammo har 100 ming aholiga 95 dan 783 nafargacha holatda qayd etiladi. "Xalqaro Bosh Miya Assotsiatsiyasi" ma'lumotlariga ko'ra, «...AQShda har yili 1 millionga yaqin fuqaro travmatik bosh miya jarohati tufayli shifoxonalarga yotqiziladi, ularning 80 mingida nogironlik holatlari rivojlanadi va 50 ming holatda o'lim bilan yakunlanadi...»¹. So'nggi yillarda dunyo bo'ylab tabiiy ofatlar, texnogen avariylar, yo'l-transport hodisalari va harbiy nizolar sonining ortib borishi BMJ uchrash tezligining keskin oshishiga sabab bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) bergan ma'lumotlarga ko'ra, bosh miya va bosh suyagi jarohatlari umumiy jarohatlarning 35% ini tashkil etib, har yili kamida 2% ga ortib bormoqda.

Jahonda BMJ global miqyosda nogironlikning asosiy sababi sifatida e'tirof etilib, uning uchrash chastotasi har yili 27 dan 69 milliongacha yetadi. Bu esa salomatlik tizimi va jamiyat zimmasiga katta ijtimoiy-iqtisodiy yuk soladi. Masalan, «...AQShda BMJ bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlar 76,5 milliard AQSh dollariga baholanadi...»². Travmatik bosh miya shikastlari qon aylanishining buzilishi, orqa miya suyuqligi sirkulyatsiyasining izdan chiqishi va miya shishi kabi og'ir asoratlarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, ko'plab bemorlarda diplopiya, epileptik tutqanoqlar, falaj, kognitiv funksiyalar izdan chiqishi, endokrin buzilishlar (gipotiroidizm, gipogonadizm), diabet insipidus, insult, Parkinson va Altsgeymer kasalliklari, surunkali travmatik ensefalopatiya kabi holatlar rivojlanadi. Shuningdek, BMJ dan so'ng tizimli yallig'lanish ta'sirida ingichka ichak devorida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar gipoperfuziya, oshqozon-ichak motorikasining pasayishi va limfoid strukturaviy alteratsiyalar bilan ifodalanadi. Adabiyotlarga ko'ra, bosh miya jarohati 45 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida nogironlik va o'limning asosiy sababi hisoblanadi. Og'ir ahvoldagi reanimatsiya bo'limida yotgan bemorlarda asosiy hayotiy ko'rsatkichlar muntazam monitoring talab qilinadi. Shu bilan birga, ichakdagi o'zgarishlar ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, chunki intensiv terapiya odatda monitoring qilish osonroq bo'lgan boshqa organlar va tizimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Ichak esa, dastlabki qarashda, ovqat hazm qilish jarayonidan chetlatilgan va hayot uchun xavf tug'dirmaydigan a'zo sifatida ko'rinadi. Biroq, bemorlarning 59,1% ida OIT buzilishining kamida bitta alomati aniqlanadi, bu esa uning funksiyasi va morfologik tuzilishidagi chuqurroq darajadagi o'zgarishlarning dastlabki ko'rinishi bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilish, bosh miya jarohatlanishidan keyin kelib chiqishining oldini olish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»³gi qarori, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»⁴ gi farmoni, 2021-yil 28-iyuldagi

¹ <https://www.internationalbrain.org/resources/brain-injury-facts>

² <https://www.uptodate.com/contents/traumatic-brain-injury-epidemiology-classification-and-pathophysiology/print>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son Qarori

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoni

PQ-5199 sonli «Sogʻliqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»⁵gi qarori, shuningdek ushbu faoliyat sohasiga oid boshqa tegishli normativ hujjatlar bayon etilgan vazifalarning bajarilishiga maʼlum darajada hissa qoʻshadi.

Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining VI ustuvor yoʻnalishi – «Tibbiyot va farmakologiya» doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. BMJ holatlari umumiy jarohatlarning 25–30 foizini tashkil etib, ushbu travmalar bilan bogʻliq oʻlim holatlari 50–60 foizgacha yetadi. OIT faoliyatining buzilishi esa bemorlarning yashash sifati va hayot prognozini pasaytiradi hamda sogʻliqni saqlash tizimi uchun qoʻshimcha xarajatlar keltirib chiqaradi. Shuning uchun BMJ dan soʻng yuzaga keladigan ichki organlar, xususan, ingichka ichakdagi asoratlarni erta aniqlash va oldini olish dolzarb tibbiy vazifa hisoblanadi (Kawai C. va boshq., 2024). BMJ oqibatida koʻpchilik bemorlarda ichak parezi – paralitik ileus holatlari qayd etiladi, bu esa ichak motorikasining sekinlashuvi yoki toʻliq toʻxtashiga olib keladi. Ushbu sharoitda ichak faoliyati izdan chiqib, tutilish, meteorizm va ogʻir klinik belgilar yuzaga keladi. Shu bilan birga, oshqozon shilliq qavatida stress yaralarining paydo boʻlishi, ularning qon ketish bilan kechishi ehtimoli ortadi (Chiminello R. va boshq., 2024).

BMJ nafaqat markaziy asab tizimining, balki boshqa hayotiy muhim tizimlar, jumladan, oshqozon-ichak trakti (OIT) faoliyatining ham izdan chiqishiga olib keladi. Tadqiqotlarda BMJ dan keyingi asoratlar qatorida oshqozon yarasi, ichak parezi, va oshqozon-ichak qon ketish holatlari aniqlangan. Statistik maʼlumotlarga koʻra, BMJ bilan ogʻrigan bemorlarning 25–70 foizida ichki organlarning shikastlanish holatlari qayd etilgan boʻlib, bu OITning ham patologik jarohatlanishga uchrashi ehtimolini koʻrsatadi (Сафронов В.Г. va boshq., 2021). BMJ dan keyingi OITdagi funksional buzilishlar bemor umumiy ahvolidan ogʻirlashuvi, kasallik klinik kechishining murakkablashuvi va davolash samaradorligining pasayishiga olib keladi. Bunday holatlarda bemorning ovqatlanish tartibi va vaqti oʻzgarishi, bu esa OIT funksiyalarining buzilishiga sabab boʻladi. Jumladan, tungi vaqtlarda ovqatlanishning kuchayishi, odatda kunduzgi ovqatlanish rejimiga mos kelmasligi, fiziologik moslashuvning izdan chiqishiga olib keladi (Гохман Е. А. va boshq., 2016).

BMJ natijasida yuzaga keladigan gipoksik holatlar Peyer shodalaridagi T- va B-limfotsitlar sonining kamayishiga olib keladi. Sirkulyator gipoksiya ichak mikrosirkulyatsiyasiga ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Ichak devorining kislorod bilan taʼminlanishiga 50–80 foizgacha toʻgʻridan-toʻgʻri ichak boʻshligʻi orqali bogʻliqlik mavjudligi sababli, bu hududlar gipoksiya va trofik buzilishlarga ayniqsa sezuvchan hisoblanadi (Темаев И.Ж. va Хасанова Д.А., 2018).

Bosh miya jarohati bilan bogʻliq asoratlarni davolash boʻyicha oʻtkazilgan ilmiy tadqiqotlar muhim yutuqlarga erishgan boʻlsa-da, ushbu patologiya fonida ingichka ichakning morfologik oʻzgarishlari yetarlicha oʻrganilmagan va chuqur tahlilni talab etadi. BMJ ni samarali davolash usullarini izlash hali ham dolzarb boʻlib, ushbu usullarni klinik amaliyotga tatbiq etishdan oldin majburiy eksperimental baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot adabiyotlarini tahlil qilish natijasida BMJ ning turli

⁵ Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi PQ-5199 sonli Qarori

bosqichlarida ingichka ichakning morfometrik parametrlari bilan bog'liq yetarli ma'lumotlar mavjud emasligi aniqlandi. Bundan tashqari, BMJ sharoitida ichak devorida yuzaga keladigan o'zgarishlar va ularni korreksiyalash bo'yicha tadqiqotlar hanuzgacha yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu esa, BMJ ning murakkab mexanizmlarini yanada chuqur o'rganish va integratsiyalashgan davolash yondashuvlarini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Buxoro davlat tibbiyot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «COVID-19 dan keying davrda Buxoro mintaqasi aholisining sog'lig'iga ta'sir qiluvchi patologik holatlarni erta aniqlash, tashxislash va davolashning yangi usullarini ishlab chiqish (2022-2026 y.)» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bosh miya jarohatining turli davrlarida ingichka ichak morfologik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsifini o'tkazishdan iborat bo'lgan.

Tadqiqot vazifalari:

nazorat guruhidagi 1-6-18 oylik oq zotsiz kalamushlarning ingichka ichak devorining morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish;

bosh miya jarohatining turli davrlarida ingichka ichak to'qimasining reaktiv o'zgarishlarini aniqlash;

nazorat guruhida va bosh miya jarohatidan so'ng ingichka ichak devorining limfoid strukturalaridagi morfologik ko'rsatkichlarni qiyosiy taqqoslash;

eksperimental bosh miya jarohatini konservativ davolash samaradorligini aniqlash va laboratoriya hayvonlarining ingichka ichak turli strukturalarining morfologik ko'rsatkichlaridagi ijobiy o'zgarishlar darajasini asoslash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida 270 ta 1-6-18 oylik oq zotsiz kalamushlar o'rganilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida ingichka ichak to'qimasining turli qismlaridan olingan gistologik materiallar xizmat qilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda makroskopik, gistologik, immunogistokimyoviy, morfometrik va statistik tadqiqot usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ontogeneznining turli bosqichlarida ingichka ichak devorining so'rg'ich balandligi, kripta chuqurligi, shilliq qavat qalinligi va limfoid follikula maydoni kabi morfologik tuzilmalari tizimli hamda qiyosiy morfometrik tahlil asosida me'yoriy morfometrik ko'rsatkichlari hamda yoshga bog'liq dinamik o'zgarishlari asoslangan;

bosh miya jarohatidan keyingi turli davrlarda ingichka ichak devoridagi limfoid tugunlarning morfologik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar yosh va vaqt omillariga bog'liq holda baholash asosida yosh organizmlarda tiklanish jarayoni nisbatan erta va faol kechishi, keksalarda esa sekin hamda cheklangan darajada namoyon bo'lishi isbotlangan;

bosh miya jarohatidan keyingi 1, 3 va 6 sutkada ingichka ichak to'qimasidagi so'rg'ich balandligi, kripta chuqurligi, shilliq qavat qalinligi kabi tuzilmalardagi morfologik va gistologik o'zgarishlar morfometrik hamda immunogistokimyoviy usullar yordamida kompleks va qiyosiy tahlil asosida ularning yosh va vaqt bilan bog'liq adaptiv-kompensator mexanizmlar asosida kechishi aniqlangan;

bosh miya jarohatini konservativ davolash jarayonida L-lizin essinat preparatini qo'llash ingichka ichakning turli tuzilmalarida, jumladan shilliq qavat qalinligi, so'rg'ich

balandligi, kripta chuqurligi, epitelial hujayralar zichligi va limfoid apparat faoliyatida ijobiy morfologik o'zgarishlarni yuzaga keltirishi va tiklanish jarayonini jadallashtirishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bosh miya jarohatining turli davrlarida bemorlarda ingichka ichak tizimi bilan bog'liq simptomatika kuzatilmagan bo'lsa ham, gastroentrolog ko'rigiga borish kerakligi tavsiya qilingan;

bosh miya jarohati natijasida shikastlangan ingichka ichak shilliq qavati hujayralarining patologik o'zgarishlarini bartaraf etish maqsadida morfologik tekshiruv usullarini qo'llash samara berishi mumkinligi isbotlangan;

bosh miya jarohati qayd etilgan bemorlarda ingichka ichak shilliq qavati bilan bog'liq kasalliklar, ingichka ichak yara kasalligini oldini olish va davolashda morfologik va immunogistokimyoviy usullarni amaliyotda qo'llashning samaradorligi yuqori natija berishi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy-tadqiqotda foydalanilgan zamonaviy, bir-birini to'ldiruvchi morfologik va statistik tadqiqot usullarining to'g'ri qo'llanganligi, bunga qo'shimcha ravishda morfologik materialning yetarli miqdori, tadqiqot materiallari statistik usullarda qayta ishlanganligi, olingan natijalarning mamlakatimiz va xorijiy tadqiqotchilarning ma'lumotlari bilan solishtirilganligi, olingan natijalar va xulosalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati postnatal ontogenez davrida va bosh miya jarohati natijasida ingichka ichak tarkibiy qismlarining taraqqiyot qonuniyatlari va tuzilishi haqida nazariy bilimlarni to'ldirish va boyitishga, bosh miya jarohatini ushbu organga ta'sir qilish darajasini baholash va ingichka ichakning eng zaif bo'lgan davrlarini aniqlashga imkon beradi va ilmiy faoliyatning turli sohalarida qo'llanishi bilan izohlanadi.

Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati ingichka ichakning ontogenezi bo'yicha yangi gistologik ma'lumotlar morfologik diagnostika jarayonini obyektivlashtirish uchun qo'shimcha belgilar sifatida hisobga olinganligi, oshqozon-ichak tizimi muammolarini oldini olish va davolash uchun ularni tartibga solish usullarini ishlab chiqishga imkon berganligi, bosh miya jarohatida ingichka ichakda aniqlanan morfologik o'zgarishlar dori vositalarini va rehabilitatsiya texnologiyalarini etiotrop tayinlash uchun asos bo'lib xizmat qilganligi, bosh miya jarohati diagnostikasi bilan shug'ullanadigan shifokorlar tekshiruvining nazariy va amaliy jihatlariga ma'lum hissa qo'shganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Bosh miya jarohati (BMJ) sharoitida ingichka ichak to'qimalarida kuzatiladigan yosh va vaqt omiliga bog'liq dinamik morfologik o'zgarishlarni morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy usullarda kompleks qiyosiy tahlil qilish natijasida:

birinchi ilmiy yangilik: ontogenezning turli bosqichlarida ingichka ichak devorining so'rg'ich balandligi, kripta chuqurligi, shilliq qavat qalinligi va limfoid follikula maydoni kabi morfologik tuzilmalari tizimli hamda qiyosiy morfometrik tahlil asosida me'yoriy morfometrik ko'rsatkichlari hamda yoshga bog'liq dinamik o'zgarishlari asoslangan. Mazkur ilmiy yangilik "Tajribaviy bosh miya jarohatlanishida ingichka ichakning

morfologik o'zgarishlarini baholash usuli" nomli uslubiy tavsiyanomada qayd etilgan bo'lib, Buxoro davlat tibbiyot instituti Muvofiqlashtiruvchi-ekspert kengashi tomonidan 2024 yil 1 iyulda (№ 24-m/010) tasdiqlangan. Uslubiy ko'rsatmalar bosh miya jarohatlanishida ingichka ichak morfologik o'zgarishlarini baholash usulini takomillashtirish va yoshga mos me'yoriy diapazonni belgilash bo'yicha metodologik asos yaratgan. Shuningdek, bosh miya jarohatining turli davrlarida, ayniqsa yosh va keksa yoshdagi bemorlarda ingichka ichak bilan bog'liq klinik simptomatika kuzatilmasa ham, gastroenterolog ko'rigidan o'tish tavsiyasi kasallikni erta tashxislash va asoratlarning oldini olishga xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro filialining 02.10.2024 dagi 118-sonli va Buxoro viloyati Patologik-anatomiya byurosining 28.09.2024 dagi 44-sonli buyruqlari asosida amaliyotga tatbiq etilgan. Mazkur joriy etish holati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Ilmiy-texnika kengash tomonidan tasdiqlangan (xulosa № 21/68, 2025 yil 7 iyul).

Ijtimoiy samaradorligi: yoshga bog'liq me'yoriy morfologik ko'rsatkichlar pediatriya, gerontologiya, gastroenterologiya va nevrologiya sohalarida ingichka ichak shilliq qavati holatini to'g'ri baholash, fiziologik va patologik o'zgarishlarni ajratish hamda yoshga moslashtirilgan diagnostika va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ingichka ichak kasalliklarini erta aniqlash, davolash samaradorligini oshirish, bemorlar sog'ligini tez tiklash, hayot sifatini yaxshilash, asoratlarning oldini olish va o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorligi: bemorlarni yoshga xos yondashuv asosida baholash diagnostik xatoliklarni kamaytirib, ortiqcha tekshiruvlarni chekladi va davolash jarayonini optimallashtirishga imkoniyat berdi. Tajriba jarayonida har bir tadqiqot seriyasida o'rtacha 1930000 so'mgacha mablag' tejash qayd etildi. Erta tashxis va yoshga mos davolash choralari asoratlarning oldini olib, gospitalizatsiya muddatini qisqartirdi va uzoq muddatli davolash xarajatlarini kamaytirdi. *Xulosa:* Turli yoshlarda ingichka ichak devorining morfologik xususiyatlari sezilarli farqlarni namoyon etadi. Ushbu yoshga bog'liq xususiyatlarni hisobga olish ingichka ichak kasalliklarini tashxislash va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

ikkinchi ilmiy yangilik: bosh miya jarohatidan keyingi turli davrlarda ingichka ichak devoridagi limfoid tugunlarning morfologik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar yosh va vaqt omillariga bog'liq holda baholash asosida yosh organizmlarda tiklanish jarayoni nisbatan erta va faol kechishi, keksalarda esa sekin hamda cheklangan darajada namoyon bo'lishi isbotlangan. *Ijtimoiy samaradorligi:* olingan natijalar bosh miya jarohatining turli davrlarida ichak immun tizimi reaktivligini baholash va yoshga mos davolash yondashuvlarini ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi. Bu, ayniqsa, nevrologik va gastroenterologik kasalliklar o'zaro bog'liq bo'lgan holatlarda ("gut-brain axis") tiklanish jarayonlarini tezlashtirish, infeksiya va yallig'lanish asoratlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Yoshga bog'liq farqlarni hisobga olish orqali gastroenterologiya, pediatriya va gerontologiya amaliyotida individual profilaktika va davolash strategiyalarini tanlash imkoniyati kengayadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* ingichka ichakning limfoid tugunlari morfologiyasini yosh va vaqt omillari bo'yicha baholash usulining amaliyotga joriy etilishi bosh miya jarohatidan keyingi ichak immun tizimidagi buzilishlarni erta tashxislash, og'ir asoratlarning oldini olish va diagnostika jarayonini

tezlashtirish imkonini berdi. Ushbu yondashuv keraksiz qo'shimcha tekshiruvlar sonini kamaytiradi, tajriba va klinik sharoitlarda samaradorlikni oshiradi. Tajriba jarayonida har bir tadqiqot seriyasida o'rtacha 1930000 so'm mablag' tejash qayd etildi. Klinik amaliyotda esa jarohatning immun javobga ta'sirini erta baholash asoratlar sonini kamaytirish, davolash muddatini qisqartirish va umumiy davolash xarajatlarini sezilarli darajada amaytirishga xizmat qildi. *Xulosa:* Bosh miya jarohatidan keyingi davrlarda ingichka ichak devoridagi limfoid tugunlar morfologiyasi yosh va vaqt omiliga sezilarli darajada bog'liqdir. Ushbu yoshga xos farqlarni hisobga olish ichak immun tizimi reaktivligini baholash va davolash strategiyalarini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv tiklanish jarayonlarini tezlashtirish, infeksiya va yallig'lanish asoratlarini kamaytirish hamda davolash muddatini va xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

uchinchi ilmiy yangilik: bosh miya jarohatidan keyingi 1, 3 va 6 sutkada ingichka ichak to'qimasidagi so'rg'ich balandligi, kriptalar chuqurligi, shilliq qavat qalinligi kabi tuzilmalardagi morfologik va gistologik o'zgarishlar morfometrik hamda immunogistokimyoviy usullar yordamida kompleks va qiyosiy tahlil asosida ularning yosh va vaqt bilan bog'liq adaptive-kompensator mexanizmlar asosida kechishi aniqlangan. *Ijtimoiy samaradorligi:* olingan ilmiy natijalar bosh miya jarohatidan keyingi ingichka ichak shilliq qavati va epitelial hujayralardagi o'zgarishlarning yosh va vaqt bo'yicha kechish qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi. Bu esa nevrologik reabilitatsiya davrida enteral oziqlantirish rejimini optimallashtirish, yallig'lanish va disbiozni oldini olish, shuningdek, gastroenterologiya, pediatriya va gerontologiya sohalarida yoshga mos davolash yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari neyroxirurgiya amaliyotida bosh miya jarohati olgan bemorlarda ichak-miya o'qi faoliyatini monitoring qilish va tiklash strategiyalarini takomillashtirish uchun qo'llanilishi mumkin. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlarida esa og'ir bemorlarda ichak morfofunktsional tiklanish jarayonlarini jadallashtirish va enteral oziqlantirish tolerantligini oshirish imkonini beradi. *Iqtisodiy samaradorligi:* gistologik baholash mezonlarini amaliyotga joriy etish diagnostika jarayonini tezlashtirib, qo'shimcha invaziv tekshiruvlarga ehtiyojni kamaytirgan. Tajriba sharoitida har bir tadqiqot seriyasida o'rtacha 1930000 so'mgacha mablag' tejash qayd etilgan. Klinik amaliyotda esa patologik o'zgarishlarni erta aniqlash orqali asoratlar sonini kamaytirish, davolash muddatini qisqartirish hamda sog'liqni saqlash tizimida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni tejash imkoniyati yaratilgan. *Xulosa:* Tadqiqot natijalari bosh miya jarohatining turli davrlarida ingichka ichak to'qimalarida kechadigan gistologik o'zgarishlar yosh guruhlariga qarab sezilarli farq qilishini ko'rsatdi. Tiklanish jarayoni murakkab va bosqichma-bosqich kechadi, bunda so'rg'ich balandligi, kriptalar chuqurligi, shilliq qavat qalinligi hamda epitelial hujayralar holatidagi o'zgarishlar dinamikasi bu jarayonning vaqtga bog'liq bosqichlarini tasdiqlaydi. Ushbu ilmiy natijalar nevrologik va gastroenterologik patologiyalar o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, yoshga mos diagnostika mezonlarini ishlab chiqish va individual davolash strategiyalarini belgilash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

to'rtinchi ilmiy yangilik: Bosh miya jarohatini konservativ davolash jarayonida L-lizin essinat preparatini qo'llash ingichka ichakning turli tuzilmalarida, jumladan shilliq qavat qalinligi, so'rg'ich balandligi, kriptalar chuqurligi, epitelial hujayralar zichligi va limfoid apparat faoliyatida ijobiy morfologik o'zgarishlarni yuzaga keltirishi

va tiklanish jarayonini jadallashtirishi asoslangan. *Ijtimoiy samaradorligi*: tadqiqot natijalari L-lizin essinat preparati—ning bosh miya jarohatidan so‘ng ingichka ichak morfologik va immun ko‘rsatkichlarini tiklashdagi yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Preparat gastrointestinal tizim faoliyatini tezroq normallashtirishga yordam beradi, bu esa reanimatsiya va nevrologik reabilitatsiya davrida enteral oziqlantirish tolerantligini oshirish, infeksiya va yallig‘lanish asoratlari chastotasini kamaytirish hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, preparatning yoshga xos samarasi aniqlanishi pediatriya va geriontologiya amaliyotida individual davolash strategiyalarini tanlashda muhim klinik va ilmiy asos yaratadi. *Iqtisodiy samaradorligi*: davolash natijasida ichak morfologik tiklanish muddatining qisqarishi va asoratlarning sonining kamayishi klinik davolash xarajatlarini sezilarli darajada qisqartirgan. Tajriba jarayonida har bir tadqiqot seriyasida o‘rtacha 1930000 so‘mgacha mablag‘ tejash qayd etilgan. Klinik amaliyotda esa bemorlarning tiklanish muddatining qisqarishi va qayta shifoxonaga yotish ehtimolining kamayishi orqali sog‘liqni saqlash tizimi xarajatlari qisqargan. *Xulosa*: Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, bosh miya jarohatini konservativ davolash ingichka ichak tuzilmalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, tiklanish jarayonini jadallashtiradi. Ushbu ilmiy natijalar nevrologik va gastroenterologik patologiyalarni o‘zaro bog‘liq ravishda baholash, diagnostika va davolash strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda muhokoma qilingan, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 ta bob, xotima, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 113 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Ingichka ichak morfologik ko‘rsatkichlarining bosh miya jarohatlanishining turli davrlaridagi qiyosiy tavsiflari bo‘yicha adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan I bobida bosh miya jarohati (BMJ) bo‘yicha mavjud adabiyotlar chuqur tahlil qilinib, ushbu holatning nafaqat markaziy asab tizimiga, balki oshqozon-ichak traktiga, ayniqsa ingichka ichak faoliyati va tuzilishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi asoslab berilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va ilg‘or xorijiy manbalarga tayangan holda, BMJ ning global sog‘liqni saqlashdagi dolzarbligi va asoratlarning tizimi ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, BMJ nafaqat nevrologik muammolarni, balki surunkali ovqat hazm qilish tizimi buzilishlarini, ichak parezini, peristaltikaning pasayishini va limfoid apparat faoliyatining susayishini ham keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar BMJ fonida ingichka ichakning shilliq qavati hamda limfoid tuzilmalarida gipoksik, ishemik va yallig‘lanish o‘zgarishlari yuzaga kelishini ta‘kidlaydi. Ayniqsa,

stressga bog‘liq ichak yaralari, disbioz, endokrin buzilishlar hamda ichki organlar o‘rtasidagi o‘zaro neyro-immun aloqalar patologik ko‘rinishga ega bo‘ladi. BMJ dan keyingi ichak morfologiyasi bilan bog‘liq o‘zgarishlar nafaqat ingichka ichak shilliq qavatini, balki butun GALT (gut-associated lymphoid tissue) tizimi faoliyatini ham o‘zgartiradi. Bu holat organizmning umumiy immun holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, asoratlarning yanada chuqurlashishiga sabab bo‘ladi.

Tahlil qilingan manbalarda ingichka ichakdagi limfoid tuzilmalar, xususan Peyer shodalari, intraepitelial limfotsitlar va solitar follikulalarning morfologiyasi, ularning immun funksiyalari hamda yoshga xos o‘zgarishlari haqida fikrlar bildirilgan. Biroq ularning BMJ sharoitida qanday dinamikada o‘zgarishi va yosh omiliga bog‘liqligi borasida yetarli eksperimental dalillar mavjud emasligi aniqlangan. Aksariyat mavjud eksperimental ishlarda BMJ dan so‘ng kalamushlarda ingichka ichak devorining morfometrik va limfoid struktura o‘zgarishlari faqat ma‘lum bir yoshda yoki jarohatdan keyingi muayyan vaqt nuqtasida o‘rganilgan. Turli yosh davrlarini, o‘zgarishlar dinamikasini va ular o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni kompleks hamda qiyosiy tahlil etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. BMJ fonida yuz beradigan bu o‘zgarishlarning kechishini izchil va kompleks yondashuv asosida o‘rganishga ehtiyoj mavjudligi ta‘kidlangan.

Shu bois, mazkur dissertatsiya ishida ilmiy vazifa sifatida — BMJ sharoitida turli yosh davrlarida ingichka ichak morfofunktsional va immunologik o‘zgarishlarining vaqtga bog‘liq dinamikasini kompleks qiyosiy tahlil qilish belgilandi.

Dissertatsiyaning **“Bosh miya jarohatidan keyingi davrlarda ingichka ichak morfologik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tavsiflash bo‘yicha tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan II bobida tadqiqot uchun tanlangan metodik yondashuvlar, tadqiqot materiali va usullari, tadqiqotning ob‘ekti, eksperimental guruhlar, bosh miya jarohatini keltirib chiqarish usuli, kuzatuv davrlari, shuningdek, morfologik, morfometrik va immunogistokimyoviy metodikalar to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotlar Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat tibbiyot instituti axloq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “eksperimental hayvonlardan foydalanish qoidalari” bilan tartibga solinadigan hayvonlarni insonparvar davolash qoidalariga (18-sonli 16.01.2018) muvofiq amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida umumiy hisobda 270 ta laboratoriya oq zotsiz kalamushlari jalb etilgan bo‘lib, ular yoshiga (1, 6 va 18 oylik) hamda tajriba mazmuniga qarab uch asosiy guruhga taqsimlandi:

- I guruh (nazorat)
- II guruh (bosh miya jarohatiga duchor qilingan)
- III guruh (BMJ dan so‘ng konservativ davo o‘tkazilgan).

Tajriba davomida texnik sabablarga ko‘ra jami 4 ta oq kalamush eksperimentdan chiqarib tashlandi.

Bosh miya jarohatini eksperimental sharoitda modellashtirish uchun maxsus patentlangan uskuna asosida "yo‘l-transport hodisasi" modelidan foydalanildi. Modellash jarayonida transport vositasi muayyan burchak ostida, belgilangan balandlikdan harakatlantirilib, kalamushlarning peshona sohasi yog‘och to‘sin bilan to‘qnashishiga olib kelindi. Natijada bosh miya jarohati sun‘iy tarzda keltirib chiqarildi.

Jarohatdan so'ng laboratoriya kalamushlari 1-, 3- va 6-kunlarda chiqarib olingan, hamda ularning ingichka ichak devorida yuzaga kelgan o'zgarishlar gistologik, morfometrik va immunologik jihatdan kompleks baholandi. Ingichka ichakdan olingan to'qimalar Gematoksilin-eozin, Van-Gizon, Garris gematoksilini bo'yoqlari, shuningdek, Hellman usuli yordamida bo'yaldi.

Immunogistokimyoviy tahlillar davomida CD45 va Ki-67 markerlaridan foydalanilgan bo'lib, ular asosida ingichka ichak to'qimalarida kechayotgan yallig'lanish reaksiyasi va epitelial proliferatsiya faolligi aniqlandi.

Bundan tashqari, BMJ ga duchor qilingan hayvonlarga konservativ davolash (L-lizin essinat preparati yordamida) qo'llanildi va uning samarasi davo olgan hamda davo olmagan guruhlar o'rtasidagi morfologik ko'rsatkichlar asosida taqqoslab o'rganildi.

Olingan natijalar Student t-testi va Mann-Whitney U-testi yordamida qayta ishlanib, $p < 0,05$ darajasidagi tafovutlar statistik ahamiyatli deb topildi.

Yakuniy tahlillarga ko'ra, morfologik, morfometrik va immunologik ko'rsatkichlarning kalamushlar yoshi hamda BMJ dan so'ng o'tgan vaqtga bog'liq ravishda sezilarli o'zgarishi aniqlandi. Ushbu yondashuv BMJ fonida ichakda kechuvchi patologik jarayonlarni kompleks baholash imkonini berdi. Umuman olganda, mazkur bobda bayon etilgan metodik asoslar keyingi boblarda keltirilgan ilmiy natijalar va xulosalarning ishonchliligini ta'minlovchi muhim poydevor bo'lib xizmat qildi.


Dissertatsiyaning **“Nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlar ingichka ichak devori morfologik va morfometrik ko'rsatkichlarining qiyosiy tavsiflari bo'yicha xususiy tekshiruv natijalari”** deb nomlangan III bobida nazorat guruhiga mansub 1, 6 va 18 oylik oq zotsiz kalamushlarning ingichka ichak devori morfologik va morfometrik ko'rsatkichlari yoshga bog'liq holda qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda gistologik va gistomorfometrik usullar qo'llanilib, strukturaviy o'zgarishlarning yoshga oid dinamikasi ilmiy asosda baholandi. Tadqiqotda nazorat guruhidagi oq kalamushlarda ingichka ichak devori morfologik va hujayraviy ko'rsatkichlari yoshga bog'liq holda ishonchli farqlanishi tasdiqlandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, 1 oylik oq kalamushlarda morfogenez jarayoni to'liq yakunlanmagan: shilliq qavat qalinligi $292,6 \pm 3,42$ mkm, mushak qavati $97,6 \pm 1,73$ mkm bo'lib, ichak so'rg'ichlari nisbatan past, kriptalar sayoz, limfoid tuzilmalar rivojlanish darajasi pastroq edi. Limfotsitlar soni $55 \pm 1,13$ ta bo'lib, epiteliy hujayralarining zichligi $2390 \pm 46,2$ huj/mm² darajada qayd etildi.

6 oylik davrda ingichka ichak devori morfofunksional rivojlanishning optimal bosqichiga yetdi (1-rasm). Shilliq qavat $301,7 \pm 3,71$ mkm, mushak qavati $110,4 \pm 1,57$ mkm gacha qalinlashdi. Ichak so'rg'lari balandligi $308,9 \pm 3,24$ mkm (1 oyliklarga nisbatan 10 % yuqori; $p < 0,05$), kripta chuqurligi $74,3 \pm 1,42$ mkm (11 % chuqurroq; $p < 0,05$) bo'ldi. Limfoid follikulalar maydoni $5620 \pm 44,2$ mkm² ga yetib, 1 oylik davrdagidan 1,7 baravar katta bo'ldi ($p < 0,01$). Shu bosqichda limfotsitlar soni $81 \pm 1,12$ taga yetib, 1 oyliklarga nisbatan 47 % ga ko'p ekanligi qayd etildi ($p < 0,01$), bu limfoid apparatning proliferativ faolligi maksimal darajaga chiqqanini ko'rsatdi.

18 oylik davrda esa regressiv-distrofik jarayonlar ustunlik qildi. Ichak so'rg'ichlari balandligi $273,1 \pm 3,87$ mkm (6 oyliklarga nisbatan 12 % past; $p < 0,05$), kripta chuqurligi $59,6 \pm 1,09$ mkm (20 % kam; $p < 0,05$) gacha qisqardi. Limfoid follikulalar maydoni

3950±45,3 mkm² gacha kichrayib, 6 oylik qiymatdan 30 % kam bo'ldi ($p<0,01$). Limfotsitlar soni 63±0,64 tagacha kamaydi (22 % pasayish; $p<0,05$), degenerativ hujayralar ulushi esa 1 oylikdagi 1,0±0,04 dan 18 oylikda 4,0±0,06 gacha oshdi ($p<0,01$). Epiteliy hujayra zichligi esa 1905±29.6 huj/mm² gacha kamaygani qayd etildi.



1-rasm. Nazorat guruhidagi 6 oylik oq zotsiz kalamushlarning ingichka ichak devori: villuslar maksimal balandlikda va xanjarsimon shaklda (1); kriptalar chuqur va aniq (2); epiteliy zich (3); mushak qavati qalin (4).

Bo‘yoq: Gematoksilin-eozin. Kattalashtirish: ok.10 × ob.40.

Xulosa qilib aytganda, nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlarda ichak devori morfometrik va immunologik ko‘rsatkichlari 6 oylik yoshda eng yuqori darajaga yetdi, 18 oylik davrda esa involyutsion-distrofik o‘zgarishlar ustunlik qildi.

Ushbu natijalar yoshga bog‘liq morfologik o‘zgarishlarning qonuniyatlarini ochib berib, keyingi tajribalarda patologik holatlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Tajriba sharoitida oq zotsiz kalamushlarda bosh miya jarohati va uni konservativ davolash fonida ingichka ichak morfologik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlil natijalari”** deb nomlangan IV bobida bosh miya jarohati (BMJ) va uning konservativ davolash fonida (L-lizin essinat bilan) turli yoshdagi (1, 6, 18 oylik) oq zotsiz kalamushlarda ingichka ichak devorining morfologik va immunogistokimyoviy ko‘rsatkichlari dinamik va qiyosiy tarzda o‘rganildi. Natijalar BMJ ta‘sirida ichak devorida yuzaga keladigan o‘zgarishlarning yosh va vaqt omiliga bog‘liq holda turlicha kechishini ko‘rsatdi.

1 oylik oq zotsiz kalamushlarda BMJ dan keyingi 1-kunda morfometrik ko‘rsatkichlarda reaktiv oshish qayd etildi. Shilliq qavat qalinligi nazorat qiymatiga (292,6±3,42 mkm) nisbatan taxminan 3,4% ga oshib, 302,5±3,01 mkm ni tashkil etdi. Gistologik jihatdan bu o‘zgarishlar shilliq qavatdagi shish va giperemiya bilan izohlandi. So‘rg‘ichlar balandligi, kriptalar chuqurligi hamda epiteliy hujayralar sonida ham


reaktiv oshish kuzatildi. Shilliq qavat xususiy plastinkasi va kriptalar atrofida ko'plab limfotsitlar to'planib, limfoid follikulalar hajmi nazoratdagi $3350 \pm 30,9$ mkm² dan $4600 \pm 50,05$ mkm² gacha yiriklashdi ($p < 0,05$). 3-kunda esa jarohatning zararlovchi ta'siri yaqqol yuzaga chiqib, ko'rsatkichlar 1-kundagi cho'qqi darajadan va nazoratdagidan sezilarli darajada pasaydi. Shilliq qavat qalinligi $281,5 \pm 4,21$ mkm ni, epiteliy hujayralari soni $2301 \pm 54,0$ ta/mm² ni tashkil etdi. Ichak so'rg'ichlari va kriptalar o'lchami ham kichraydi, limfoid follikulalar maydoni $3500 \pm 47,0$ mkm² gacha (1-kundagi darajadan taxminan 24% ga) kichraydi. Bu davrda BMJ dan keyin regressor bosqich kuzatilib, epiteliy hujayralarida apoptoz jarayonlari kuchaydi. 6-kunda ingichka ichak morfologik ko'rsatkichlarida qisman normallasuv qayd etildi: yallig'lanish belgilari kamaydi, shilliq qavat strukturalari nazoratdagi holatiga deyarli qaytdi (adaptiv tiklanish).

6 oylik oq zotsiz kalamushlarda ham BMJ dan so'ng 1-kunda ingichka ichak devorida o'tkir yallig'lanish belgilari kuzatilib, ichak so'rg'ichlari va kriptalar o'lchami reaktiv oshdi. 3-kunda reaktiv va reparativ jarayonlar bir vaqtda kechdi: epiteliy yuzasida tiklanish va qadahsimon hujayralar sonining ortishi qayd etildi, biroq ayrim joylarda distrofik o'zgarishlar ham saqlandi. 6-kunga kelib yallig'lanish jarayoni sezilarli susayib, tiklanish jarayonlari faollashdi – shilliq qavat va boshqa tuzilmalar morfometrik ko'rsatkichlari me'yoriy holatga yaqinlashdi.

